

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ULUG‘MURODOVA KAMOLA MURODULLAYEVNA

**O‘ZBEK MUMTOZ SHE‘RIYATIDA LAYLI OBRAZINING BADIY
TALQINI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (O‘zbek mumtoz adabiyoti)

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по
филологическим наукам**
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Philology Sciences**

Ulug‘murodova Kamola Murodullayevna

O‘zbek mumtoz she’riyatida Layli obrazining badiiy talqini.....3

Улуғмуродова Камола Муродуллаевна

Художественная интерпретация образа Лейли в узбекской классической поэзии.....25

Ulugmurodova Kamola Murodullayevna

Artistic interpretation of the image of Layli in Uzbek classical poetry.....48

E‘lonqilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ULUG‘MURODOVA KAMOLA MURODULLAYEVNA

**O‘ZBEK MUMTOZ SHE‘RIYATIDA LAYLI OBRAZINING BADIY
TALQINI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (O‘zbek mumtoz adabiyoti)

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/Fil1041 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.Tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupova Dilnavoz Rahmonovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shodmonov Nafas Namozovich
filologiya fanlari doktori, professor

Karimova Faridaxon Isakovna
filologiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

**O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc .03./30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning -----dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.(Manzil: 100100. Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (9987) 281-42-44. (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). .(Manzil: 100100. Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (9987) 281-42-44. (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “ ___ ” _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil “ ___ ” _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

H.A. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

N.A.Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida an'anaviy obrazlarning badiiy talqiniga doir muammoni yoritishda ushbu obrazlarning genezisini aniqlash, tadrijiy va badiiy takomilini belgilash hamda mazkur obrazlarning adabiyot tarixi, xususan, mumtoz she'riyatga kirib kelishi va o'ziga xoslik kasb etishi bilan bog'liq jihatlarini kuzatish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita obrazning vujudga kelish omillari, yozma adabiyotdan o'rin olishi, muayyan ijodkorlar asarlarida markaziy o'ringa chiqishi, adabiy ta'sir asosida an'anaviylikdan ijodiy individuallik kasb etishi, turli mualliflarning asarlarida o'ziga xos talqiniga ega bo'lishi kabi muammolarni o'zaro qiyosiy aspektda tadqiq etishni taqozo etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy asarlar asosida yaratilgan obrazlarni she'riyat misolida o'zaro qiyoslab, o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlarga alohida diqqat qaratiladi. Xususan, "Xamsa" tarkibidagi an'anaviy dostonlarning bosh qahramoni bo'lgan Layli timsolining mumtoz shoirlar ijodida mualliflarning adabiy-estetik idealiga hamohang tarzda o'ziga xoslik kasb etishi bilan bog'liq ilmiy mulohazalar o'zbek mumtoz she'riyatida Layli obrazining badiiy talqinini yoritish uchun xizmat qiladi. Shu maqsadda bir qator adiblar, xususan, Sayfi Saroyi, Mavlono Qozi Muhsin, Xorazmiy, Xo'jandiy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Husayniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ubaydiy, Boborahim Mashrab, Uvaysiy, Amiriy, Nodira, Muhammad Rahimxon Feruz, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Haziniy, Kulfat kabi ijodkorlar she'riyatida qo'llangan Layli obrazining o'ziga xos jihatlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega.

O'zbekistonda mamlakat strategik rivojining bosh omillari belgilanar ekan, tarixiy, madaniy, adabiy va san'at asarlari, xususan, lirik poeziya namunalarini o'rganish, tadqiq etish, ulardagi milliy va madaniy merosimizga oid g'oyalarni chuqur va atroflicha tahlil qilish yosh avlod ma'naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda yuz berayotgan har qanday islohot, avvalo, badiiy adabiyot va madaniyatda o'z ifodasini topadi, zero, "adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor"dir¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida", 2001-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabr-dagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib

¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Т.: 2017 йил 4 август.

qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida adabiyotning ta'sir kuchini oshirish bo'yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida an'anaviy obrazlar, xususan, Layli obrazining g'oyaviy-badiiy jihatlarini ilmiy tadqiq etish bo'yicha bir qancha izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularning aksariyatida mazkur obraz Sharqda keng tarqalgan Layli va Majnun qissasi asosida o'rganilgan. Xususan, rus olimlari: I.Y.Krachkovskiy, Y.E.Bertels, turk adabiyotshunosi O.S.Levend, o'zbek olimlari T.Ahmedov, S.Narzullayevalarning izlanishlarida Layli timsolining badiiy adabiyotga o'tishi va ishqiy dostonlarning bosh qahramoniga aylanishi arab, fors, turk, ozarbayjon va o'zbek adabiyotiga bog'liq tarzda talqin qilingan bo'lsa², keyingi davr tadqiqotlari, xususan, N.Mallayev, A.Qayumov, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, N.Komilov, A.Erkinov, U.Jo'raqulov, N.Jabborov, D.Yusupova, Z.Mamadaliyeva, U.Sanaqulov kabi olimlarning monografik ishlari va maqolalarida mazkur obrazning badiiyatiga doir ayrim masalalar tahlilga tortilgan³. Shuningdek, qardosh xalqlar adabiyotida yaratilgan "Layli va Majnun" dostonlarining o'zaro muqoyasasi bilan bog'liq ayrim tadqiqot va maqolalarda ham mazkur obrazning

² Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе Алишер Навои. – М. – Л.: АН СССР, 1946; Бертельс Е.Э. Низами и Физули. Изб.труды. – М.: Наука, 1962; Levend A.S. Arab, fors ve türk edebiyatlarında Leyla ve Mecnun hikayesi. – Ankara, 1959; Араслы Н.Г. Низами и турецкая литература. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Баку, 1969; Ахмедов Т. Алишер Навоийнинг "Лайли ва Majnun" достони. – Т.: Фан, 1970; Нарзуллаева С. Тема Лейли и Меджнун в истории литературы народов Советского Востока. – Т.: Фан, 1983.

³ Маллаев Н. Сўз санъатининг гултожи. – Т.: Ғафур Ғулом, 1991; Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т.: Ғафур Ғулом, 2015; Қаюмов А. Лайли ва Majnun. Асарлар. 1-жилд, 2-китоб. – Т.: Mumtoz so'z, 2008; Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1996; Ҳайитметов А. Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Т.: 1959; Шу муаллиф. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Т.: 1963; Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Т.: Ўқитувчи, 1993; Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995; Эркинов А. Алишер Навоий «Хамса»си талқинининг XV-XX аср манбалари. Филол.фан.док.дисс... – Тошкент, 1998; Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. – Т.: Ғафур Ғулом, 2015; Жабборов Н. Маоний ахлининг соҳибқирони. – Т.: Адабиёт, 2021; Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги. – Т.: Mumtoz so'z, 2011; Мамадалиева З. Алишер Навоий "Хамса"сидаги рамзий ва мажозий образлар системаси. – Т., 2024; Sanaqulov U. Alisher Navoiy she'riyatida Layli va Majnun timsollari talqini. Filol.fan.b.fals.dok. (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2024.

muayyan jihatlariga e'tibor qaratilgan⁴. Biroq ushbu ilmiy tadqiqotlarda Layli obrazining o'zbek mumtoz she'riyatidagi o'rni va badiiy takomili alohida tadqiq etilgan emas. Mazkur dissertatsiya ana shu vazifani qamrab olganligi bilan boshqa ilmiy tadqiqotlardan ajralib turadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek mumtoz adabiyoti va folklorini o'rganishning dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mumtoz adabiyotimizda XII-XIX asrlarda yaratilgan lirik janrlar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan Layli obrazining she'riyatdagi o'rni, mazmun-mohiyati, tadrijiy taraqqiyoti va badiiy takomili bilan bog'liq masalalarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Layli obrazining o'zbek mumtoz adabiyotiga kirib kelish tarixi, genezisi va geneologiyasiga oid ma'lumotlarni aniqlash;

forsiy va turkiy she'riyat tarixida Layli obrazining mazmun-mohiyati va ifodalanish shakllarini dalillash;

Layli obrazining temuriylar davri she'riyati va nomalar tarkibida qo'llanilish darajasini o'rganish, tasnifini amalga oshirish;

Alisher Navoiy g'azallarida Layli obrazining istifoda etilish o'rni va ma'nolarini ilmiy asoslash va xonliklar davri adabiyotida Layli obrazining poetik talqinini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot obyektini o'zbek mumtoz she'riyatida Layli obrazi qo'llanilgan lirik janr namunalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini XII-XIX asrlar adabiyotida yozilgan g'azallar, XIV-XV asrlarda yaratilgan nomalar va ularning tarkibida qo'llangan Layli obrazining badiiyati, mazmun-mohiyati va shakllarining ilmiy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, statistik, qiyosiy-tarixiy usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sharq mumtoz adabiyotida Layli obrazining genezisi va tadrijiy takomili aniqlanib, dostonlar, nomalar: Xorazmiyning "Muhabbatnoma" va Xo'jandiyning "Latofatnoma" asarlarida an'anaviy obraz darajasiga ko'tarilgani va mumtoz she'riyatga ko'chishi bilan bog'liq masalalar ochib berilgan;

⁴ Saber B. Leylâ İle Mecnûn Mesnevisinin Arap, Fars Ve Türk Edebiyatı'nda Ele Alınış Biçimi ve Larendeli Hamdî'nin Eseri. Doktora Tezi. İstanbul, 2004; Balcı O. Lârendeli Hamdî'nin Leyla vü Mecnûn Mesnevisi (Bağlamli Dizin ve İşlevsel Sözlük). Doktora Tezi. Eskişehir, 2020; Абдулҳакимова Ю. Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий "Лайли ва Мажнун" дostonларининг қиёсий таҳлили. Филол.фан.б. фалс.док. (PhD) дисс. – Т.: 2022; Yusupova D. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy "Layli va Majnun" dostonlarining qiyosiy tahlili // O'zbekiston: til va madaniyat. 2022. – № 2. – B.5.

Layli obrazining turkiy she'riyatga kirib kelish bosqichlari hamda uning poetik vazifasi, lirik asarlarda ijodkor ruhiy kechinmalarini ifodalashdagi o'rni dalillangan;

Layli obrazining Majnunning suyakli va vafodor yori, Yaratganning yerdagi tajalliysi, tun, badiiy asar qahramoni, lirik qahramonning yoriga oshiq bo'lishga loyiq obraz, go'zallikda tengsiz yor, sevikli yor, vatan, farzand kabi ma'nolarni ifodalab kelishi aniqlangan;

mazkur obraz o'zbek mumtoz she'riyatida mualliflarning g'oyaviy-badiiy niyatini talmeh, tanosib, tashbeh va mubolag'a kabi badiiy san'atlar vositasida ochib berishga xizmat qilgani asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotning tahliliy materiali hamda chiqarilgan ilmiy xulosalar kelgusida ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar uchun yordamchi manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

tadqiqotdan o'zbek adabiyoti tarixi va adabiyot nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yaratish uchun foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;

tadqiqot doirasida olib borilgan izlanishlar o'zbek adabiyoti tarixining XII-XIX asrlar adabiyotida yozilgan lirik janrlarda va nomalarda qo'llangan Layli obrazi badiiyatini takomillashtirish, yangi ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilganligi asoslangan;

tadqiqot o'zbek mumtoz she'riyatida uchragan Layli obrazining badiyatiga doir amaldagi tasavvurlarni bir qadar takomillashtirishga xizmat qilganligi yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, qo'llanilgan ilmiy usullar va nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mumtoz adabiyot, xususan, XII-XIX asrlar adabiyoti lirik janrlari tarkibida qo'llangan Layli obrazi tahlilini ilmiy fikrlar bilan boyitish orqali izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati undagi xulosalardan "O'zbek adabiyoti tarixi", "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Mumtoz poetika", "Mumtoz she'riy janrlar" kabi mutaxassislik va tanlov fanlarini o'qitishda, oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanmalar, majmualar yaratish va ularni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mumtoz adabiyot, xususan, XII-XIX asrlar adabiyoti lirik janrlari tarkibida qo'llangan Layli obrazining tahlili bo'yicha olingan natijalar asosida:

Sharq mumtoz adabiyotida Layli obrazi, uning genezisi hamda tadrijiy takomili asrlar davomida badiiylashib, an'anaviy obraz darajasiga ko'tarilgani; o'zbek mumtoz she'riyatida Layli obrazining shakllanishi; mazkur timsolning turkiy she'riyatga kirib kelish bosqichlari hamda uning badiiy talqini; mazkur obrazning lirik asarlarda ijodkor ruhiy kechinmalarini ifodalashi; ham forsiy, ham turkiy she'riyatda shoirlarning ijodiy salohiyatini namoyon etishi; noma janridagi asarlarda munosib ahamiyat kasb etganligi va aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2022-yillarda bajarilgan PZ-2020042022. "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2023- yil 20-iyuldagi 01/10-1237-son ma'lumotnomasi). Natijada, mumtoz she'riyatda an'anaviy obraz darajasiga ko'tarilgan Layli obrazi sharq adabiyotiga xos ijtimoiy-falsafiy, diniy-ma'rifiy mavzularda uchrashiga doir materiallar tayyorlashga asos bo'lgan;

Sharq xalqlari adabiyotida muhabbat mavzusida yozilgan lirik asarlarni asosan noma va g'azallar tashkil qilgani, obrazlar dunyoviy va ilohiy muhabbat g'oyalarini kuylashda vosita bo'lib xizmat qilishi, XIV-XV asr o'zbek she'riyatida yaratilgan "Muhabbatnoma", "Dahnoma", "Taashshuqnoma" kabi noma janriga mansub asarlarda va xonliklar davri o'zbek mumtoz g'azallari, ularning taraqqiyoti aynan Layli obrazining badiiy takomili asosida ilmiy yoritilganiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga bajarilgan PF-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli: o'zbek, ingliz, rus tillarida elektron platformasini yaratatish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 19-sentyabrdagi 04/1-2520-son ma'lumotnomasi). Natijada, noma janriga mansub asarlarda va xonliklar davri o'zbek mumtoz g'azallaridagi Layli obrazining badiiy takomiliga doir materiallar tayyorlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot yuzasidan jami 14 ta ish e'lon qilingan. Jumladan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyasi asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 125 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Sharq mumtoz adabiyoti tarixida Layli obrazi**” deb nomlanib, ikki paragrafdan tarkib topgan. “*Layli obrazining genezisi, tadrijiy takomili*” ga bag‘ishlangan birinchi paragrafda obraz haqidagi ilk nazariy fikrlarning paydo bo‘lishi, takomili, fors-tojik va turkiy adabiyot tarixida mazkur obrazga doir yondashuvlar tadqiq etilgan.

Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari badiiy adabiyotida Layli obrazi bilan bog‘liq qissa va dostonlar keng tarqalgan. Ushbu obrazning genezisi va tadrijiy takomili ko‘plab olimlarning e‘tiborini tortgan. Jumladan, bu obraz xususida rus olimlari Y.E.Bertels, I.Y.Krachkovskiy, turk adabiyotshunosi O.S.Levend, o‘zbek olimi T.Ahmedovning maxsus izlanishlari bor⁵.

Adabiyotshunoslikda Layli obrazi bevosita Majnun obrazi bilan birgalikda tadqiq etiladi. Bu masalani birinchi marta akademik I.Y.Krachkovskiy batafsil o‘rganadi va bu ikki obraz haqidagi ma‘lumotlarni “Alisher Navoiy” nomli to‘plamida e‘lon qiladi. Olimning ma‘lumot berishicha, ushbu obrazning ildizlari VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. U dastlab arablar o‘rtasida yuzaga kelgan qadimiy tarqoq manbalarda o‘z ifodasini topgan⁶.

Arab olimi al-Johiz ibn al-Mu‘tazning ma‘lumot berishicha, kishilar Layli nomi qayd etilgan barcha she‘rlarni Majnunga nisbat beraverganlar⁷. Natijada, VIII asrning birinchi choragida Majnunning she‘rlariga sharhlar sifatida ayrim rivoyatlar paydo bo‘la boshlagan. Ular IX asrda nisbatan ko‘proq shuhrat qozongan. Mazkur rivoyatlar X asrga kelib faqat Arabistondagina emas, balki Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari orasida ham keng yoyilgan. XII asrda Abu Bakr al-Volibiy Majnun nomiga nisbat berilgan she‘rlarni yig‘ib, devon tuzgan⁸. Shu tariqa, Layli obrazi Majnun timsoli bilan birga ommalashib, qator shoirlar ijodida asosiy obraz darajasiga ko‘tarilib borgan. Mana shu she‘rlar zaminida Layli

⁵ Bertels E.Э. Низами и Физули. Изб. труды. – М.: Наука, 1962; Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе. – М.–Л.: АН СССР, 1946; Levend A.S. Arab, fors ve türk edebiyatlarında Leyla ve Mecnun hikayesi. – Ankara, 1959; Ахмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достони. – Т.: Фан, 1970.

⁶ Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе. – М.–Л.: АН СССР, 1946. – С. 30-31.

⁷ O‘sha manba. – B. 31.

⁸ Ахмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достони. – Т.: Фан, 1970. – Б.10.

va Majnunning muhabbati haqidagi rivoyatlar xalq orasida keng tarqalib ketadi va asta-sekin xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga o‘tadi⁹.

Layli obrazi ilk bor forsiy epik she‘riyatda bosh qahramon sifatida Nizomiy Ganjaviy dostonida qo‘llaniladi, keyinchalik Xusrav Dehlaviy dostoni orqali an‘anaviylik kasb etadi. Shuningdek, ushbu obraz Shayx Sa‘diyning “Bo‘ston”ida kichik she‘riy hikoya, “Guliston”ida esa kichik nasriy hikoya tarkibida keltirilgan.

Turkiy adabiyotda Layli obrazi bilan bog‘liq talqinlar Gulshahriyning “Mantiq ut-tayr”, Oshiq Poshoning “G‘aribnoma” asarlarida uchraydi. Layli haqida batafsil hikoya qiluvchi mukammal qurilishga ega bo‘lgan turkiy dostonlarning eng birinchisi Shohidiyning “Gulshani-ushshoq” asaridir. Mazkur obrazning turkiy epik poeziyadagi tadrijiy taraqqiyoti Alisher Navoiy va Fuzuliy dostonlari bilan bog‘liq.

Bobning “*Mumtoz she‘riyat tarixida Layli obrazi*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida Layli obrazining fors-tojik va turkiy adabiyot tarixida qo‘llanilishi hamda mazmun-mohiyati tahlil etildi. Abu Abdulloh Ro‘dakiy fors-tojik adabiyotining asoschilaridan biri bo‘lib, forsiy she‘riyatda Layli obraziga ilk murojaat uning she‘riyatidan boshlanadi.

*Бихандад лола бар сахро ба сони чеҳраи Лайло,
Бигиряд абр бар гардун ба сони дийдаи Маҷнун*¹⁰.

Baytda Layli timsoli Laylo tarzida Majnunning suyakli yori ma‘nosida qo‘llanilib, tabiatdagi ikki hodisa – lola va bulut Layli va Majnun timsollari vositasida bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Boshqacha aytganda, “sahroda lola Layli ruxsorida tabassum qiladi, ko‘kda bulut Majnun ko‘zidek yosh to‘kadi”¹¹.

Nizomiy Ganjaviy she‘riyatida esa Layli obrazi shoir dostonidagi singari mukammallik va badiiylikni o‘zida aks ettiradi. Shoirning lirik qahramoni ishqda komillikka erishgan. U o‘zini oddiy oshiq emas, balki Majnun darajasida deb hisoblaydi, zero, Laylo undan tashqarida emas, balki uning qalbidan joy olgan:

*Judo qil mendin oshiqlik hadisin,
O‘zing Laylo, meni bil Majnun, ey dil*¹².

Shu jihatdan shoir she‘riyatidagi Layli obrazi uning “Layli va Majnun” dostonidagi Layli timsoliga yaqin turadi. “Bu o‘rinda shoir “dil” obrazini chizar ekan, uni Laylo timsolida, lirik qahramonni Majnun siyomosida tasvirlaydi”¹³.

Amir Xusrav Dehlaviy g‘azalida mazkur obraz forsiy she‘riyatdan yana-da mustahkamroq joy olgani anglashiladi:

⁹ Yusupova D. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy Layli va Majnun dostonlarining qiyosiy tahlili //O‘zbekiston: til va madaniyat, 2022. – № 2. – B.5.

¹⁰ Осори Рӯдакӣ. Дар тахти таҳрири А.Мирзоев. – Сталинобод, 1958. – С. 120.

¹¹ Ochilov E. O‘zbek adabiyoti hazinasidan. – T.: 2022. – B. 4.

¹² Низомий шеърятидан (Ш.Шомухамедов таржимаси). – Т.: Ўзбекистон, 1983. – Б.6.

¹³ Sanaqulov U. Alisher Navoiy she‘riyatida Layli va Majnun timsollari talqini an‘anasi / Alisher Navoiy va XXI asr 9-uluslararo konferensiya to‘plami. – T. – Bursa, 2024. – B. 664.

*Қисса-и мо бо ту аз Лайлию Мачнун даргузаит,
Хусраву Ширин чӣ бошад, Вомиқу Узро кӣ буд?*¹⁴

(Mazmuni: Bizning sevgimiz qissasi (mashhurlikda) Layli va Majnunlar afsonasidan o'tdi. Bu qissa oldida Xusrav-u Shirin qissasi nima bo'libdi-yu, Vomiq-u Uzro kim bo'libdi?)

Hofiz Sheroziy esa o'z she'rlarida Layli obrazini Shirin timsoli bilan birgalikda, muvoziy (parallel) tarzda tasvirlaydi:

*Ҳикояти лаби Ширин каломи Фарҳод аст,
Шиканчи турраи Лайли мақоми Мачнун аст*¹⁵.

(Mazmuni: Shirin labining hikoyati Farhodning kalomidan joy olgan, Layli zulfining xalqalari Majnunning makonidir). Baytni tasavvufiy nuqtai nazardan talqin qiladigan bo'lsak, "Mir'otul ushshoq" da keltirilishicha, lab bu zavq va ilhom paytida orif insonlarning ko'nglidan tiliga ko'chadigan kalomdir¹⁶. Demak, Shirinning labi Farhodning ko'nglidan tiliga ko'chgan so'z, u har yerda ushbu kalomni takrorlaydi. Yorning halqa-halqa buramali zulfi esa oshiq ko'nglini ilintiradigan tuzoq. Yor zulfining domiga giriftor bo'lmay turib, uning visoliga muyassar bo'lish mumkin emas. Demak, Majnun Layli zulfining halqalarini makon tutish orqali ilohiy visolga erishish talabida. Baytda Layli timsolidan maqsad ilohiy jamoldir.

Abdurahmon Jomiy g'azallarida tasvirlangan Layli ilohiy mazhar bo'lib, uning bosgan izlari Ka'batulloh singari muqaddasdir:

*Чу ҳар манзил, ки Лайли карда ҷо, Каъба-ст Мачнунро
Ба қасди Каъба Мачнунро чи ҳочат қатъи манзилҳо*¹⁷.

(Mazmini: Layli qadami yetgan har qanday manzil Majnun uchun Ka'badek muqaddas. Uning ziyorati uchun Majnunning Ka'baga borishi shart emas).

Shunidek, ushbu paragrafda Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida nomlari qayd etilgan Mavlono Darvesh Dehakiy, Mavlono Zuloliy, Mavlono Malik kabi forsiyo'g'y shoirlar ijodida qo'llanilgan Layli obrazi bilan bog'liq talqinlar ham ko'rib chiqilgan.

Layli timsolining turli mazmun-mohiyat kasb etishi turkiy mumtoz she'riyatimiz tarixida ham uchraydi. Uning ilk namunalarini shoir Sayfi Saroyi ijodi misolida ko'rish mumkin.

*Hikoyat mustamelarga ko'ra ayt,
Agar bo'lsa, alarning so'zga mayli.*

¹⁴ Амир Хусрав Дехлавӣ. Ахтарони адаб. – Душанбе: Адиб, 2014. – С. 202.

¹⁵ Ҳофизи Шерозий. Девон. Ахтарони адаб. – Душанбе. Адиб, 2015. – Б.81.

¹⁶ Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: – Tamaddun, 2012. – Б.112.

¹⁷ Абдурахмон Чоми. Осор. Чилди ҳафтум. Душанбе. Адиб, 1989. – Б. 27.

*O'tursa oqil er Majnun qotinda,
Kerakmas so'zi, illo zikri Layli¹⁸.*

Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asaridan olingan ushbu she'riy parchaga ko'ra, so'zga mayli bor mustamelar (tinglovchilar) Majnunning yoniga o'tirsalar, Majnun uchun Layli haqidagi so'zdan boshqa so'z kerak emasligini anglab yetadilar. Chunki Majnun fikr-u zikri, butun xayoli faqat Laylida. Shu bois boshqa so'zga hojat yo'q. Bu o'rinda shoir Layli obrazini Majnunning suyakli yori ma'nosida qo'llagan. Sayfi Saroyining zamondoshi Mavlono Qozi Muhsindan keltirilgan bir g'azalning ikkinchi baytida shunday misralar bor:

*Kechti Layli, kechdi Shirin xo'blig'i,
Ushbu kun mening shahum davronidur¹⁹.*

Lirik qahramon oshiq bo'lgan ma'shuqa shu qadar go'zalki, bu xilqat oldida Layli va Shirinning go'zalligi qiymatga ega emas, bu kun faqat shu yorning davr-u davronidir. Ko'rinadiki, mumtoz she'riyat tarixida Layli obrazi go'zallikda tengsiz yor; badiiy asar qahramoni; Majnunning suyakli yori; ilohiy mazhar ma'nolarini o'zida aks ettirgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**XIV asrning II yarmi - XV asr boshlari she'riyatida Layli obrazining badiiy takomili**" deb nomlanadi. Bobning "*Temuriylar davri she'riyati va nomalar tarkibida Layli obrazining o'rni*" deb sarlavhalangan birinchi paragrafida shu davrda yashagan ijodkorlar she'riyati hamda mumtoz adabiyotimizda mavjud nomalar tahlilga tortilgan. Bu davr ijodkorlari she'riyatida Layli obrazining qo'llanilish darajasini quyidagicha tasnif qilish mumkin: *Majnunning suyakli yori; Yaratganning yerdagi tajalliysi; badiiy asar qahramoni; doston nomiga ishora; tun; shoirning yoriga oshiq bo'lishga loyiq obraz; ilohiy mazhar.*

Ta'kidlash joizki, bu davr she'riyatida Layli obrazi eng ko'p *Majnunning suyakli yori* ma'nolarida qo'llanilgan. Bu tasodifiy emas albatta, chunki bu davrda "Layli va Majnun" afsonasi har qachongidan ko'proq tarqalgan, davr ijodkorlari orasida bu mavzuga murojaat qilib, alohida doston yozgan shoirlar talaygina edi. D.Yusupova birgina Hirot adabiy muhitida mazkur mavzuda qalam tebratgan 10 dan ortiq shoirning nomini tilga oladi²⁰.

Bu davr shoirlaridan "turkona uslub" sohibi Mavlono Atoyi o'z g'azallarida Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Vomiq, Uzro, Yusuf, Zulayho, Masih, Ya'qub, Xizr kabi obrazlarni mahorat bilan qo'llab, ulardan o'z g'oyaviy-badiiy niyati ro'yobida foydalangan. Mazkur timsollar Atoyi ijodida ham tasavvufiy ruh, ham dunyoviy mohiyat kasb etadi. Shoir g'azallarida Layli timsoli Majnunning suyakli yori ma'nosini bildirish bilan birga Yaratganning yerdagi tajalliysini ham ifodalab keladi.

¹⁸Sayfi Saroyi. Guliston bit-turkiy. –T.: G'afur G'ulom, 1986.– B. 221.

¹⁹ Сайфи Саройи. Шеърлар. Гулистон. – Т.: Фафур Фулом, 1968. – Б. 11.

²⁰ Bu haqda qarang: Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги. Монография. – Т.: Mumtoz so'z, 2011.

*Majnuni giriftor bikin Layli g'amida,
Necha kezayin besar-u somon netayin men²¹.*

Atoyining zamondoshi bo'lgan Lutfiy ham bu obrazga alohida murojaat qilgan. "Lutfiy devonidagi lirik asarlarning yetakchi mavzusi – ishq sanaladi. Shu ishq insonning zohiriy va botiniy olamini oyna bo'lib aks ettiradi"²². Lutfiy she'riyatini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning mazkur mavzu mohiyatini batafsil yoritishda an'anaviy obrazlardan foydalanganligini ko'ramiz.

*Xayolingni yubor, Layli, mening holimni so'rmoqqa,
Ki Majnundin sening ishqing mening holim batari qildi²³.*

Baytda lirik qahramon Layli (suyukli yor)ga holini so'rash uchun xayolini yuborishni zorlanib so'ramoqda. Chunki uning ahvoli ishq dardida Majnundan ham og'ir holga tushib qolgan.

Layli obrazini suyukli yor ma'nosida qo'llash Hofiz Xorazmiy g'azallarida nisbatan ko'proq kuzatiladi. Xususan, shoir devonidan o'rin olgan bir qator g'azallarda Layli timsoli orqali oshiqning o'z yoriga sadoqati ifodalanadi:

*Nechakim javr qilur, jonim o'zgani savmas,
Chu savmas o'zgani Layloning o'rnina Majnun²⁴.*

*Qaydakim borsam o'shul yorni jonim izdar,
Laylodin o'zgani savmadi chu hargiz Majnun²⁵.*

Bu davr she'riyatida Layli obrazi *Yaratganning yerdagi tajalliysi* ma'nosida ham qo'llanganligini kuzatamiz. "Tajalliy" so'zi ko'rinish, jilvalanish ma'nolarini ifoda etib, mumtoz adabiyotda bu tushuncha Layli obrazi bilan hamohang tarzda shakllangan. Bu xususda olim N.Komilov shunday yozadi: Majnun – Haq jazbasi tekkan, Haq jamolini kuchli shavq bilan sog'ingan solik timsoli bo'lsa, Layli ilohiy tajalliyot nuri porlagan o'sha mazhardir". Lutfiy lirikasida ancha keng o'rin tutgan dunyoviy mavzular ayni paytda, diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg'unlashib, bir-birini to'ldirib kelishini hamda majoz va haqiqat birligini tashkil etishini ko'rishimiz mumkin.

*Qildi Shirin xandasidin muhtalo Farhodni,
Kirdi Layli ko'zig'a, Majnunni shaydo ayladi²⁶.*

²¹ Атойи. Девон. Жондан азиз жонона. – Т.: Шарқ, 2011. – Б.203.

²² Erkinov S. Lutfiy. Maqola // Ma'naviyat yulduzlari. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – В. 215.

²³ Лутфий. Девон. – Т.: Фафур Фулом, 2012. – Б.309.

²⁴ Хофиз Хоразмий. Девон. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б.114.

²⁵ Хофиз Хоразмий. О'sha manba. – Б. 115.

²⁶ Лутфий. Девон. – Т.: Фафур Фулом, 2012. – Б. 350.

Hofiz Xorazmiy bu tasvirni ishq haqiqiy vositasida ifodalaydi:

*Ishqi haqiqiy nogahon suvratg'a kelgan orada,
Olamning ichra oti gah Majnun-u, gah Laylo emish²⁷.*

Bu davr she'riyatida Layli so'zi Majnun ismi bilan birga kelib, **asar nomiga ishora** ma'nosida ham istifoda etilgan. Xususan, Sakkokiy g'azallaridan birida shunday yozadi:

*Bizdan eshitsun emdi jahon toza qissalar,
Chun ko'hna bo'ldi Layli-yu Majnun hikoyati²⁸.*

Baytda Sakkokiy o'z g'azallarini "Layli va Majnun" dostoni bilan qiyoslab, jahon endi muhabbat haqida yangi qissalar eshitsin, chunki Layli va Majnun to'g'risidagi afsonalar eskirdi, demoqda. E.Rustamovning fikriga ko'ra, Sakkokiy bu o'rinda syujeti eskirgan bo'lib tuyulayotgan "Layli va Majnun" dostoni bilan g'azalni teng qo'yadi²⁹.

Husayniy ijodida Layli obrazi badiiy asar qahramonini ifodalab keladi:

*Husn ila sen komil-u Shirin-u Layli shuhrati,
Ishq aro men zor o'lub, Farhod-u Majnun tuhmati³⁰.*

Husayniy mazkur baytning dastlabki misrasi orqali o'z mahbubasini husn bobida komillikka yetishgan Shirin va Laylining shuhratiga tenglashtirayotgan bo'lsa, ikkinchi misrada o'zini ishq o'tida ado bo'lgan Farhod bilan Majnunga qiyoslamoqda.

Zahiriddin Muhammad Boburning lirik qahramoni ham ishq yo'lida o'zini barcha oshiqlardan ustun qo'yib, ustozlik maqomiga da'vogarlik qiladi. Uning yori Shirin va Layliga noz-karashmani, o'zi esa Farhod-u Majnunga ishq-muhabbatni o'rgatishga qodir:

*Qani Shirin bila Layliki, sendin noz o'rgansa,
Qani Farhod-u Majnunkim, alarga ishq o'rgatsam³¹.*

Shuningdek, bu davr she'riyatida Layli timsoli "**tun**" so'zi bilan mutanosib holatda qo'llanganini kuzatish mumkin:

*Tug'ar Majnung'a kecha oftobi
Agar ko'rguzsa yuz layl ichra Laylo³².*

"Tun, kecha, oqshom" ma'nolarini beruvchi "layl" so'zi Layli timsoli bilan uyg'unlik hosil qilib, shoir mahoratini namoyon etgan. Ya'ni agar Layli tun

²⁷ Хофиз Хоразмий. Девон. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 277.

²⁸ Саккокий. Танланган асарлар. – Т, 1960. – Б. 48.

²⁹ Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – М.: Ивл, 1963. – С. 49.

³⁰ Ўзбек адабиёти. 4 томлик. 1 том. – Т., 1959. – Б. 542.

³¹ Бобур. Махрами асрор топмадим. – Т.: Ёзувчи, 1993. – Б.44.

³² Хофиз Хоразмий. Девон.– Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 240.

qorong‘usida yuzini ko‘rsatsa, Majnun uchun qorong‘u tun oydin oftobni tug‘ib berishi tasvirida Haq jamoliga yetishgan solikning qalbi oftob nuri misoli yorishishi nazarda tutilgan.

Dissertatsiyada Layli timsolining noma janriga oid asarlar tarkibidagi mazmun-mohiyati Xorazmiyning “Muhabbatnoma” hamda Xo‘jandiyning “Latofatnoma” asarlari orqali ko‘rsatib berilgan. Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma”, Yusuf Amiriyning “Dahnoma”lari tarkibida Layli timsoliga bevosita murojaat etilmagan bo‘lsa-da, Majnun obrazi qo‘llangan o‘rinlarda mantiqan unga ishora qilingan baytlar mavjudligini ko‘rish mumkin.

Bobning “*Alisher Navoiy g‘azallarida Layli obraziga munosabat*” deb nomlangan ikkinchi faslida “Xazoyin ul-maoniy” lirik kulliyotidagi devonlar misolida Layli obrazining badiiy talqininga diqqat qaratildi. Shoirning bu obrazga munosabatini ikki xil yo‘nalishda kuzatish mumkin:

- 1) “Layli va Majnun” dostoni tarkibidagi Layli obrazi talqini;
- 2) Shoir lirikasida Layli timsolining istifoda etilishi.

Adabiyotshunoslikda Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonining syujeti, obrazlar sistemasi, badiiyati, uning boshqa xamsanavis ijodkorlar dostonlari bilan qiyosiga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Ularda keltirilgan xulosalar asosida Layli obrazining Navoiy dostonida qo‘llanilish darajasini quyidagicha belgilash mumkin: Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi Layli salafklar dostonlaridagi qahramondan ikki xususiyati – ham ilohiyot mazhari, ham real inson – mahbuba ekanligi bilan ajralib turadi. Uning bir qiyo boqish bilan Qaysni Majnunga aylantirishi, gulzorda yoridan hol so‘rashi, Majnunni ko‘rgach, es-hushini yo‘qotishi – obrazning ilohiyot mazhari ekanligini ko‘rsatsa, Laylining Majnunga yozgan xatida “*Sening nechakim g‘amingg‘a yo‘q mahl, Chun er kishisen bu sahl erur, sahl*” deyishi, shu bilan birga oshig‘ini Navfalning qizidan rashk qilib, kinoyali tabrik maktub yozishi kabi voqea va holatlar Laylining real insoniy xususiyatlarga ega ekanligini isbotlaydi³³.

Shoir ijodida Layli obrazidan foydalanilgan o‘rinlarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

T/ r	Devonlar	Layli obrazining qo‘llanish o‘rni	Devonda kelish o‘rni
1	“ <i>Garoyib us-sig‘ar</i> ”	Laylo	14 o‘rinda: 2, 20, 45, 184, 198, 221, 228, 359, 368, 386, 440, 489, 505, 559- g‘azallarida;
2	“ <i>Navodir ush-shabob</i> ”	Layli, Laylo	20 o‘rinda: 2, 3, 38, 43, 59, 238, 326, 363, 373, 408, 419, 439, 478, 489, 531, 532, 542, 547, 564, 622-g‘azallarda;
3	“ <i>Badoyi’ ul-vasat</i> ”	Laylo	24 o‘rinda: 9, 32, 43, 45, 67, 144, 146, 157, 161, 176, 177, 184, 213,

³³ Bu haqda qarang: Алишер Навоий: комуший луғат. I жилд. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 250.: Абдулҳакимова Ю.Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий “Лайли ва Мажнун” дostonларининг қиёсий таҳлили. Филол.фан. б. фалс.док. дисс... – Т.: 2022.

			257, 275, 305, 337, 344, 415, 444, 463, 493, 601, 640-gʻazallarida;
4	<i>“Favoyid ul- kibar”</i>	Layli, Laylo, Laylivash	14 oʻrinda: 45, 55, 83, 90, 119, 231, 245, 295, 302, 316, 358, 585, 605, 611-gʻazallarida.

Shoir sheʼriyatida qoʻllanilgan baytlar tahlil qilinganda, ular birlashib, goʻyo shoirning “Layli va Majnun” dostoni yaxlit holda bir butunlik hosil qilgandek tasavvur uygʻonadi. Chunki shoir Layli obrazi orqali gʻazal baytlariga butun bir voqelikni singdira olgan. Shu maʼnoda Navoiy devonlarida uchragan Layli obrazini quyidagicha tasnif qilish mumkin: 1) Majnunning vafodor yori, 2) ilohiyot mazhari, 3) tengsiz goʻzallik sohibasi; 4) badiiy asar qahramoni; 5) tun maʼnosini ifodalovchi obraz.

*Ne ishka boʻldi beorom koʻzgu aksidek Majnun,
Yuzi koʻzgosida aksini gar koʻrguzmadi Laylo.*

(Gʻaroyib us-sigʻar, 2-gʻazal)

Ushbu bayt shoirning hamd gʻazallari tarkibidan oʻrin olgan. Shu bois unda Allohning sifatleri mujassamlashgan boʻlib, ular gʻazalning har bir baytida koʻzga tashlanadi. Gʻazalda shoir Layli obrazi orqali oddiy bir timsolni emas, balki Allohning yerdagi zuhurini aks ettiradi. Unga koʻra, olamdagi barcha narsaning asosini ishq tashkil qiladi. Chunki olamning yaratilishi ishq bilan bogʻliq. Alloh taolo oʻz bandalarini mehr-u muhabbat bilan yaratgan va ularga shu muhabbatdan bir zarrasini inʼom etgan. Ayni muhabbat tufayli bulbul bogʻda gulning ishqida tonggacha sayrab, oshiqona figʻon chekadi, Majnun dasht-u biyobonlarni kezib, ohuning koʻzlari, nasimning ifori, gullarning rangidan Laylining jamoli nishonalarini izlaydi³⁴. Boshqacha aytganda, Layli yuzining koʻzgosida Yaratganning jilvasi aks etmasa edi, Majnun bu qadar beorom boʻlmagan boʻlardi. Mazkur misrani U.Sanaqulov quyidagicha talqin etadi: ”Shoir talqinida Laylo yuzi “mazhar”, uning yuzi oynasida Haq jamoli zuhur etgan, shuning uchun Majnun uni koʻrganda betoqat boʻlib oromini yoʻqotgan. Alisher Navoiy lirikasida ishq ilohiy mavzular talqinida koʻproq Laylo va Majnun timsollariga murojaat etiladi”³⁵.

*Majnun boshini sajdadin olmas edi aslo,
Gar Layli itining julidin topsa musallo.*

(Badoyiʼ ul-vasat, 32-gʻazal).

Majnun oʻz iztiroblariga chora sifatida Laylining itidan najot izlaydi. Uning tasavvurida itning terisida, har bir tukida Laylining pok qadamlari izi bor, shu sababli u joynamoz kabi muqaddas. Shu bois Majnun shu vafodor oshiqning jonsiz tani ustida sajdadan boshini olmay turishga rozi. Shoir mazkur bayt orqali “Layli va Majnun” dostonining 14-bobidagi voqealarga ishora qiladi. Maʼlumki, it sadoqat, doʻstlik, vafodorlik ramzi sanalib, dostonida uning bu sifatleri aniq dalillar

³⁴ Давлатов О. Маънолар хазинаси. – Т.: Tamaddun, 2021. – Б. 12.

³⁵ Sanaqulov U. Alisher Navoiy sheʼriyatida Layli va Majnun timsollari talqini. Filol.fan.b. fals.dok. diss... avtoref. – Samarqand. 2024. – B. 14.

asosida ko‘rsatib o‘tilgan. U ham Majnun kabi oshiq, yorining oyog‘i ostida yotib o‘z vafodorligini, sadoqatini namoyon qiladi. Buning mohiyatini anglagan Majnun Layliga sadoqat borasida ulkan iltifot ko‘rsatgan it oldida o‘zining notavon ekanligini his qiladi. Chunki it Laylini ko‘rganda Majnun kabi hushini yo‘qotmaydi uning oyoqlariga suykilib, erkalanadi – itning bardoshi kuchli, bu esa Majnunning yeta olmas armoni³⁶.

Dissertatsiyaning uchinchi bobini “**Xonliklar davri adabiyotida Layli obrazining poetik talqini**” deb nomlangan bo‘lib, ikki paragrafni o‘z ichiga oladi. Bobning “*Qo‘qon adabiy muhiti she‘riyatida Layli timsoli*” deb atalgan birinchi faslida, XVIII asrning oxiri – XIX asr birinchi yarmida Qo‘qon adabiy muhitida yashab ijod etgan Boborahim Mashrab, Uvaysiy, Amiriy, Nodira, Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Haziniy, Kulfat kabi shoir va shoiralar she‘riyati tahlil qilingan.

Ma‘lumki, tasavvuf adabiyotida Layli timsoliga so‘fiyni Haq ishqiga yetkazadigan mazhar, bir vosita sifatida qaralgan. Bu holat, ayniqsa, Mashrab ijodida butun bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi. Mashrab tasavvuf adabiyotining yorqin vakili sifatida barcha so‘fiy shoirlar kabi Yaratganning vasliga beqaror intilgan devona oshiqdir. Unga ko‘ra, Layli aniq bir insonning ismi emas, balki so‘fiyning qalbi moddiy g‘arazsiz oshiq bo‘lgani bir ma‘shuqning, mahbubning umumiy ismi. Majnun esa unga es-hushidan ayrilib oshufta bo‘lgan insonga berilgan sifat:

*Sani Layli-yu ra‘nodek ajoyib dilrabo derlar,
Mani Majnuni shaydodek ko‘yingda bir gado derlar*³⁷.

O‘zbek shoiralari orasida ilohiy ishqni kuylash borasida Mashrabga yaqin turuvchi ijodkor Uvaysiydir. I. Adizovanning tadqiqotida aytilishicha, shoira she‘riyatida eng ko‘p ishlatilgan obraz Majnun bo‘lib, u bu timsolga havas bilan qaraydi. U yetgan darajaga ko‘tarilishni orzu qiladi. Dunyo Laylidangina iboratligiga Majnun singari ishongisi keladi. She‘rlarida Majnun bo‘lib so‘zlaydi³⁸. Shoiraning Navoiy g‘azaliga bog‘lagan bir taxmisida shunday band bor:

*Hajring afsun etib, qo‘ymadi bir zarra majol,
Chehrami zard etib, ayladi ham ashkimi ol,
Layli ishqidin o‘shal Qays ajab topdi kamol,
Dasht devonasig‘a men qilurman istiqbol,
Chiqa Majnung‘a, ne tong, g‘ulu biyobon o‘tru*³⁹.

Muxammasda Layliga bo‘lgan pok ishq tufayli kamolot darajasiga ko‘tarila olgan Qays obrazi Navoiyning Majnuni bilan uyg‘unlik kasb etib, ajoyib poetik birlik yuzaga kelgan.

³⁶ Алишер Навоий: қомусий луғат. I жилд. – Т.: Шарқ, 2016. – Б. 250.

³⁷ Машраб. Девон. – Т.: Янги аср авлоди. 2006. – Б. 207.

³⁸ Адизова И. Увайсий шеърлятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. Филол. фан. док. дисс. – Т., 2020. – Б. 49.

³⁹ Увайсий. Мазмун маъдани. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 202.

Mohlaroyim Nodiraga ko‘ra, olamdagi barcha narsa, hodisa va o‘zgarishlarning ijodkori bo‘lgan Alloh O‘zi yaratgan narsalardan tashqarida emas, balki ular bilan birga, bir butun holda mavjuddir. Shunga ko‘ra, ilohiyot va tabiatni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas. Nodira “*oshiq O‘zi, ma’shuq O‘zi*” der ekan, mazkur konsepsiyani Layli bilan Majnun hamda Vomiq va Uzro kabi oshiq-ma’shuqlar haqidagi afsonalar asosida izohlaydi:

*Oshiq O‘zi, ma’shuq O‘zidir, lek afsona
Layli bila Majnun ila Vomiq va Uzro⁴⁰.*

Bu davr she‘riyatida an‘anaviy obrazlar, xususan, Layli obraziga murojaat doirasi bir oz kengaydi. Mumtoz adabiyotda qo‘llanilgan timsol va obrazlar endi ijtimoiy mohiyat kasb eta boshladi. Mumtoz she‘riyat tarixida Majnunning suyuqli yori, Yaratganning yerdagi tajalliysi, ilohiy mazhar kabi ma‘no-mohiyatning yoniga endi ijtimoiy motivlar ham qo‘shila bordi. Bu davr she‘riyatida qo‘llangan Layli timsoli *farzand; real inson (Umarxon)ga ishora; Vatan; vafo* timsoli bilan bog‘liq ma‘nolarni ham o‘zida aks ettira boshladi.

Uvaysiy g‘azallaridan birida lirik qahramon fig‘on ko‘tarsa, ayb sanaladigan, oh ursa, ta‘na-malomatga qoladigan mahzun bir oshiqdir. Uning yori Laylimonand bir shoh. Lirik qahramon uning ko‘yida ovvora Majnun holiga tushgan. Bu g‘azal faqat oshiqona mohiyat kasb etmay, farzandini sog‘ingan onaning iztiroblarini ham o‘zida aks ettiradi:

*Fig‘oni – ayb, ohi – ta‘na, bir bechora mahzunman,
Ki bir Layli parivash shohga avvora Majnunman⁴¹.*

Uvaysiy yashagan davrda Amir Umarxon Qo‘qon xoni, Nodirabegim esa malikai davron edi. Nodirabegim turmush o‘rtog‘i erta vafot etgan Uvaysiyi Qo‘qonga ko‘chirtirib keladi. Uvaysiy bir muddat saroyda yashaydi va qizlarga xat-savod o‘rgatib, she‘r va musiqa ta‘limi bilan shug‘ullanadi. 1822- yilda Amir Umarxon vafot etadi va uning o‘rniga o‘g‘li Muhammad Alixon taxtga o‘tiradi. Xon shoiraning o‘g‘li Muhammadxonni sarboz sifatida Qashqar urushiga jo‘natib yuboradi. Urushda yosh Muhammadxon vafot etadi. Shoiraning she‘rlarida endi firoq bilan bog‘liq tuyg‘ular tarannumi keng o‘rin egallaydi. Bizningcha, ushbu baytda farzandining firoqida Majnun holiga tushgan onaning iztiroblari ham o‘z ifodasini topgan.

